

**YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA  
TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV**

*Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich*

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mustahkamlashdan iboratdir.

O'g'il-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim tizimi oiladan keyingi o'rinda, ayrim holatlarda undan ham ustun turadi. Prezidentimiz " Yangi O'zbekiston strategiyasi " asarida bo'g'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, keyingi ta'lim bosqichlaridagi professor-o'qituvchi va ilmiy-ijodiy ziyorilarni Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni sifatida bejiz qayd etmadi. Bu gap zamirida o'qitish tizimidagi sharqona va milliy qadriyatga aylangan " Tarbiya asosida ta'lim berish " tamoyili asos bo'lib turibdi. Ta'lim-tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq. Demak, ma'rifat va ma'naviyatni ham bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Milliy g'oyaning qadriyatlashuvi milliy axloqni shakllantirish, jamiyat a'zolarini ma'naboyitish, yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'qituvchilardan, shuningdek, yoshlarga ta'lim berayotgan, urnak ko'rsatayotgan jamiyat a'zolaridan talab qilinadiki, yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda yoshlarga psixologik yondashishlarni talab etadi.

Shu o'rinda N. A. Nekrasovning Vatan haqidagi so'zlarini keltirishni joiz deb bildim. " Vatanga muhabbat, avvalo, unga samimiyat, qizg'inlik bilan, samarali istak bilan ezbilik va ma'rifat tilashdan iboratdir, uning mehrobiga hamma narsani, shirin jonni ham fido etish, undagi barcha yaxshi narsalarga qizg'in hamdardlik bildirish hamda uning kamolot yo'liga g'ov tushayotgan narsalarga qarshilik

bo'lmoqlikdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, yaqin-yaqinlarda ham vatanparvarlik Vatandagi barcha yaxshi narsalarni madh etishdan iborat edi, vatanparvar bo'lmoq uchun yoshlikdan yurtga muhabbat ruhida tarbiyalash lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutidan.24.06.2019 yil.
2. Shavkat Mirziyoyev " Yangi O'zbekiston erkin va farovon yashaylik"- T:2021
3. Karimov I.A. " Barkamol avlod orzusi" T; " Sharq", 2019, 39-bet.
4. Davlat statistika qo'mitasi – Stat.uz
5. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2023-yil .